



## NOTARIAL HARAKATLARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY TALABLARI

Sh.B.Xodjayeva<sup>1</sup>

Toshkent shahri Uchtepa tumanida Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notaries,

O'R.Muxtorov<sup>2</sup>

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius B.Sh.Xodjayeva stajyori.

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p1-40>

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> February 2023

Accepted: 09<sup>th</sup> February 2023

Online: 10<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

### ABSTRACT

#### Notariusning muhri - sudyaning adolat o'rnatishiga sababdir.<sup>1</sup>

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan isloxlardan asosiy ko'zda tutilgan maqsad fuqarolar uchun imtiyozlar, qulayliklar, bir so'z bilan aytganda, inson hayotining farovonligi uchun munosib sharoit yaratishdan iborat.

Bu boradagi isloxtlar ifodasini xar bir tarmoq kesimida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, ushbu hujjatlar ijrosida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatda notariatni isloh qilish, uni preventiv odil sudlov hamda sud nizolarining oldini olish vazifalarini bajaruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ta'minlovchi muhim institutlardan biri sifatida shakllantirish borasida izchil chora-tadbirlar sezirarli darajada amalga oshirilmoqda.

Qolaversa, notariat tashkilotlari faoliyatini salmoqli takomillashtirish, ushbu sohaga nisbatan insonlarda ishonch ruhini shakllantirish shuningdek, sohani rivoj topishida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida raqamlashtirish tizimini hamda notarial idoralarda notarial idoraga kelmasdan turib notarial harakatlarni amalga oshirish tartibini joriy etish maslalarini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 maydagi "Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3741-sonli Qarori<sup>2</sup> hamda 2019 yil 9 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5816-sonli Farmoni<sup>3</sup> qabul qilindi.

Mazkur islohotlar natijasida o'tgan davr mobaynida notariuslar soni 17 foizga oshib, bugungi kunda 953 nafar notariuslar faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan aholiga 26 turdagi notarial harakatlar bo'yicha huquqiy xizmat ko'rsatib kelinmoqda.

<sup>1</sup> <http://www.notarius-spb.ru>

<sup>2</sup> <http://old.lex.uz/docs/3749139>

<sup>3</sup> <http://old.lex.uz/docs/4506606>



Notariuslar tomonidan 2021-yilda 4 428 081 ta notarial harakat amalga oshirilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2022-yilda 5 393 775 tani tashkil qildi.<sup>4</sup>

Shuningdek, Farmon asosida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda sudgacha bo'lgan jarayonda dalillarni ta'minlash (guvohlarning ko'rsatuvlarini yozib olish, yozma va ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish va guvohlantirish, ekspertiza tayinlash, Internet tarmog'idagi faktlarni tasdiqlash), fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, shu jumladan mulkiy va meros masalalarida mediator vazifalarini bajarish hamda yaratilgan mualliflik va turdosh huquq ob'ekting taqdim etilgan vaqtini tasdiqlash kabi yangi notarial harakatlar joriy etildi.

Mazkur notarial harakatning zarurati nimada edi?

Ayonki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **26-moddasida**<sup>5</sup> jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sud qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sud ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas, deb belgilangan.

Shu sababli ham fuqarolarning, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning, chet el fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlashni yana bir samarali amaliyotini yo'lga qo'yish uchun yangi notarial harakatlarni amalga oshirish yo'lga qo'yilayotgani sababli ham bu borada bir qancha masalalarga yetarlicha munosabat bildirish lozim.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil

9 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5816-sonli Farmoni bilan joriy etilgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda sudgacha bo'lgan jarayonda dalillarni ta'minlash (guvohlarning ko'rsatuvlarini yozib olish, yozma va ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish va guvohlantirish, ekspertiza tayinlash, Internet tarmog'idagi faktlarni tasdiqlash) notarial harakatini amalga oshirish orqali asosan ma'muriy huquqbuzarliklar yoki jinoyat ishlari uchun isbotlash vakolatiga ega surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudga (JPKning 86-moddasi)<sup>6</sup> maqbul dalil sifatida taqdim etish ko'zlangan.

Mazkur notarial harakat dalillarning maqbulligini ta'minlashga qaratilganligi, shaxslarga nisbatan sodir etgan huquqbuzarliklari uchun jazo tayinlashda asosiy vosita hisoblanganligi sababli muhim mahamiyatga ega harakat hisoblanadi.

Mazkur notarial harakatning o'ziga xos tomonlari JPKning 87-moddasida ko'rsatilgan dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatuvni hodisa ro'y bergan joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksperiment qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun namunalarni olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish,

<sup>4</sup> <https://adliya.uz>

<sup>5</sup> <http://old.lex.uz/docs/-20596>

<sup>6</sup> <http://old.lex.uz/docs/-111460>



shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan to'planishidan farqli va afzalligini anglab yetish zarur.

Shunda biz bu notarial harakatni amalga oshirish uchun qo'shimcha sifatida qonunchilik kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlarni asoslantirishga erishamiz.

Jumladan, JPKda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 fevraldagi O'RQ-675-sonli Qonuniga<sup>7</sup> asosan kiritilgan yangi tergov harkati ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish tartibi bilan mazkur notarial harkatni bog'lagan holda guvoh va jabrlanuvchini (fuqaroviy da'vogarni) ishni sudga qadar yuritish bosqichida prokurorning iltimosiga binoan so'roq qilish sud tomonidan amalga oshirilishi yoki prokurorning iltimosiga muvofiq notarial idorada ham rasmiylashtirish mumkinligini kiritish maqsadga muvofiq.

Haqiqatdan ham JPKda sud tomonidan iltimosnomani 24 soat ichida ko'rib chiqib uni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmasligi haqida ajrim qabul qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan. Biroq, mazkur harkat notarial idoralar tomonidan prokurorning iltimosnomasiga muvofiq 24 soat ichida to'liq rasmiylashtirilishi hattoki guvohlarni, jabrlanuvchilarni sog'liq holati bilan bog'liq muammolari bo'lganda joyiga chiqib (kasalxona, sanatoriya va boshqalar) rasmiylashtirish imkoniyati ham mavjudligini va dam olish kunlari (shanba, yakshanba) notarial idoralar ish faoliyatida bo'lishi mumkinligini ham inobatga olish lozim.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019 yil 4 yanvardagi 2-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3113, 2019 yil 4 yanvar) bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 164<sup>2</sup>-bandiga ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish guvoh va jabrlanuvchini (fuqaroviy da'vogarni) ishni sudga qadar yuritish bosqichida prokurorning iltimosiga binoan so'roq qilish notarius tomonidan bayonnoma tuzish orqali rasmiylashtirilishini ham nazarda tutish lozim.

Mazkur tartib bilan JPKning 121<sup>1</sup>-125<sup>4</sup>-moddalariga tegishli tartibda o'zgartirilib, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish notarial tartibda amalga oshirishni optimal variantidan foydalanishni nazarda tutish lozim.

## **Taklif**

Shu sababli, ayni holatda JPKning mazkur normalariga notarial harakat sifatida olibborishning huquqiy asoslarini quyidagi tahrir orqali nomoyon qilish maqsadga muvofiq:

*"121<sup>1</sup>-modda. Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish*

*Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish guvoh va jabrlanuvchini (fuqaroviy da'vogarni) ishni sudga qadar yuritish bosqichida prokurorning iltimosiga binoan so'roq qilishdan iborat bo'lib, u ushbu Kodeksda nazarda tutilgan sud muhokamasi qoidalariga ko'ra sud tomonidan yoki notarius tomonidan bayonnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.*

*121<sup>2</sup>-modda. Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish uchun asoslar*

*Prokuror ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorning yoxud murojaatning asosligini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorni yoki murojaatni surishtiruv, dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga, notariusga yoki hududiy harbiy sudga yuboradi.*

<sup>7</sup> <http://old.lex.uz/docs/-5295912?ONDATE=18.02.2021%2000#-5297041>



*Iltimosnomaga ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish zarurligini tasdiqlovchi jinoyat ishi materiallarining ko'chirma nusxalari ilova qilinadi.*

*121<sup>3</sup>-modda. Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish shartlari*

*Notarius ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risidagi iltimosnomani materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soatdan kechiktirmay ko'rib chiqadi va iltimosnomani qanoatlantirish hamda notarius tomonidan bayonnoma tuzish vaqtini belgilash orqali bu haqda taraflarga xabar beradi. Notarius ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlash bo'yicha bayonomani rasmiylashtirish va tasdiqlashni bir sutkadan kechiktirmay o'tkazadi.*

*121<sup>4</sup>-modda. Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish tartibi*

*Guvohning, jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019 yil 4 yanvardagi 2-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3113, 2019 yil 4 yanvar) bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi.*

*Sud majlisi va notarial idorada audio- va videoyozuvdan foydalangan holda, shuningdek videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.*

*Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlash jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchining ishtiroki guvoh yoki jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar)ning xavfsizligiga tahdid soladigan yoki ruhiy holatiga ta'sir qiladigan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sud majlisiga hamda notarial idoraga chaqirilmaydi.*

*Sud majlisining bayonnomasi, notarius tomonidan rasmiylashtirilgan bayonnoma audio- va videoyozuvlar, bayonnoma yuzasidan berilgan mulohazalar va ularni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha qabul qilingan qaror jinoyat ishi materiallariga qo'shish uchun prokurorga yuboriladi.*

*Bayonnomaning va unga ilova qilingan materiallarning ko'chirma nusxalari sudda hamda notariusda saqlanadi."*

*Xulosa*

O'tgan davr mobaynida notariat sohasi to'liq isloh qilinib raqamlashtirildi. Buning natijasida ortiqcha qog'ozbozlik va byurokratiya qisqardi, fuqarolarning ovvoragarchiliklariga chek qo'yildi. Fuqarolarga o'zlariga yaqin notariusni aniqlash, notarius qabuliga navbatga elektron yozilish, ishonchnomaning qonuniy kuchga egaligini aniqlash, meros ishi ochilganligini aniqlash, masofadan turib elektron murojaat qilish imkoniyati yaratildi.

Notarial harakatlarni notarial idoraga kelmasdan masofadan turib onlayn tasdiqlash xizmati yo'lga qo'yildi.

Avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnomalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron shaklda rasmiylashtirish tizimi joriy etildi.

Bular qatorida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan shaxsiy huquq va burchlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yangi notarial harakatlarga ehtiyoj mavjud. Shu sababli yuqorida nazarda tutilgan yangi turdagi notarial harakatlarni optimallashtirish, ularni amalga oshirish tartib taomillarini yanada soddalashtirish maqsadga muvofiq.

Shu bilan notarial idoralarning faoliyatida sud-huquq sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirishda, iqtisodiy, oilaviy, meros, uy-joy, mehnat va boshqa nizolarni oldini olishda



notariatning salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiluvchi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar shu kabi yangi notarial harakatlar natijasida bartaraf etilishiga erishilishi hamda shaxslarning Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarini amalga oshirishni yana bir bor ta'minlovchi mustaqil institutga aylanadi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2013-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi
3. Yuridik fan va huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I jild / Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. M.M. Mamasiddiqov. – T.: "Lesson press".2020. – 450 b.
4. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019 yil 4 yanvardagi 2-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3113, 2019 yil 4 yanvar) bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma.
5. <http://old.lex.uz/docs/4407205>
6. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.